

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60710300 – Matbaa va qadoqlash muhandisligi bakalavriat  
ta'lim yo'nalishining*

**MALAKA TALABLARI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining  
2024 yil “25” \_\_\_\_\_ 06 \_\_\_\_\_ dagi 218 — sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo’llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo’llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo’yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar .....</b>	7
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	7
5.	<b>Dual ta’lim bo’yicha o’qitishga qo’yiladigan talablar .....</b>	8
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	10
	<b>Kelishuv varag’i .....</b>	11

## **1. Umumiy tavsifi**

60710300 – Matbaa va qadoqlash muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 60710300 – Matbaa va qadoqlash muhandisligi muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.**

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Matbaa-qadoqlash va noshirlik korxonalarida buyurtmalarni qabul qilish, materiallarni qabul qilish va saqlash, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini tuzish va jihozlarni boshqarish, materiallar, yarimmahsulotlar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis-texnolog.

60710300 – Matbaa va qadoqlash muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional

ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60710300 – Matbaa va qadoqlash muhandisligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

Respublika va xorijda chop etilgan matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati texnologiyalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o’rganish;

soha bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo’yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig’ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikasion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo’llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati sohasida ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo’yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko’rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko’rish;

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati sohasida chiqarish texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong’in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

#### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatda:**

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati sohalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoati mahsuloti turlarini ishlab chiqarish, korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.**

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo‘llay olishi;

og‘zaki nutq va yozma shaklda fikr, mulohaza, g‘oya, taklif, ta’rif va hulosalarni mantiqiy, to‘g‘ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoatda matbaa-qadoqlash va noshirlik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

matbaa-qadoqlash va noshirlik sanoatda matbaa-qadoqlash va noshirlik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va uskunalar ketma-ketligi, jarayonlarning texnologik omillarini o'rnatish va sozlash usullarini bilishi;

ishlab chiqarishda muammolar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralari ishlab chiqish uchun mijozlar, ichki bo'limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo'lishi;

mahsulot sifatni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4380</b>	<b>146</b>	
1.01	O'RT1104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	XT11210	Xorijiy til 1,2	300	10	1,2
1.03	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.04	FAL1404	Falsafa	120	4	4
1.05	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.06	OMI1210	Oliy matematika 1,2	300	10	1,2
1.07	MFIZ11210	Muhandislik fizikasi 1,2	300	10	1,2

*2007/08*

1.08	KIM1206	Kimyo	180	6	2
1.09	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.10	MKG11210	Muhandislik va kompyuter grafikasi 1,2	300	10	1,2
1.11	PFK1505	Polimerlar fizikasi va kimyosi	150	5	5
1.12	SIM1705	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	150	5	7
1.13	SANE1604	Sanoat ekologiyasi	120	4	6
1.14	NM1305	Nazariy mexanika	150	5	3
1.15	AMEX14509	Amaliy mexanika 4,5	270	9	4,5
1.16	ETE1305	Elektrotexnika va elektronika	150	5	3
1.17	MQJT13410	Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi asoslari	300	10	3,4
1.18	PrTU134515	Prepress texnologiyalari va uskunalari	450	15	3,4,5
1.19	PTU1456720	Postpress texnologiyalari va uskunalari	600	20	4,5,6,7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1770</b>	<b>59</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1770	59	4,5,6,7
<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Muhandis-texnolog (matbaa va qadoqlash muhandisligi bo'yicha)</b>				
		<b>Jami:</b>	<b>6150</b>	<b>205</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>1050</b>	<b>35</b>	<b>4,6,8</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

### 5. Dual ta’lim bo’yicha o’qitishga qo’yiladigan talablar.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ular tomonidan tanlagan ta’lim yo’nalishi (mutaxassislik) bo’yicha zarur amaliy ko’nikmalarni egallashi, shuningdek, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatining ijobiy tajribasini o’rganish, talabalarning kelajakdagi mutaxassisligi bo’yicha kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish, ular tomonidan o’quv jarayonida olingan nazariy bilim, ko’nikma va malakalarni mustahkamlash, bitiruvchilarda oliy ma’lumotga ega bo’lishi bilan birga muayyan “Kasb egasi” malaka ko’nikmasini ham shakllantirish, oliy ta’lim tashkiloti va korxonada o’qitishni amalga oshirish, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotining o’quv jarayoniga yangi o’qitish texnologiyalarini joriy etish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida dual ta’lim bo’yicha o’qitish yo’lga qo’yiladi.

Bunda mehnat bozori ehtiyojlariga, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish istiqbollarga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish, oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlari mazmuni va tuzilmasining mobilligini ta’minlash, real ishlab chiqarish sharoitidagi kasbiy tajribani o’rgatish uchun talabalarga yetarli sharoit yaratish hamda talabalarni ish bilan ta’minlash chora tadbirlari amalga oshiriladi.

Dual ta’limni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dual ta’lim tashkil etishga tavsiya etiladigan korxonalar ro’yxatini shakllantirish;
- dual ta’lim asosida oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashga bo’lgan talab va takliflarni o’rganish;
- dual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;



korxonada va oliy ta’lim tashkiloti hamda talaba o‘rtasida shartnoma tuzish;  
tashkilotlarda kafedra filiallarini tashkil etish;  
dual ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.

Ta’lim yo’nalishi (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqib, faqat kunduzgi shakli uchun 3- va 4-kurslarda talabalarni dual ta’lim asosida o‘qitish bir haftada kamida ikki kun ta’lim dasturining nazariy qismini oliy ta’lim tashkilotida, qolgan kunlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismlarini korxonada o‘tkazish orqali yoki amaliyot shaklida amalga oshiriladi.

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch soʻzlar:**

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o’quv reja va o’quv dasturlari, profilʼ, o’qib-o’rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o’quv jarayoni, matbaa mahsulotlari, matbaa va qadoqlash sanoati texnologiyasi, bosishgacha bo’lgan jarayon texnologiyasi, printmedia texnologiyasi, postpress jarayonlari texnologiyasi, matbaa va qadoqlash materiallari, qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi, maxsus bosma usullari texnologiyasi, polimer qadoq, nashriyot mahsulotlari, rastrlash va ranglarga ajratish, spektrodensitometrik nazorat, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o’quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQLILGAN:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**



**Rektor** [Signature] akademik. S.M. Turabjanov

2024 yil « 13 » \_\_\_\_\_

M.O’.

**Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti**



**O’quv ishlari bo’yicha prorektor** [Signature] X.Kamilova

2024 yil « 13 » iyun

M.O’.

**KELISHILDI:**

**O’zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor** [Signature] M.Boltaboyev



2024 yil « 13 » \_\_\_\_\_

M.O’.

**Namangan muhandislik-texnologiya  
instituti**

**Rektor** [Signature] O.Mamatkarimov



2024 yil « 13 » iyun

M.O’.

**“O’zbekiston” NMIU direktori**

[Signature] B.A.Kambarov



2024 yil « 14 » iyun

M.O’.

**“Kolorpak” MCHJ direktori**

[Signature] M.A.Mirzaxmedov



2024 yil « 15 » iyun

M.O’.